



**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-IYUN




Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2022-2019- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Surxondaryo viloyati ¹⁾	7 137,9	100,0	108,4
Termiz sh.	2 074,9	29,0	112,4
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	278,1	3,9	105,7
Angor	299,3	4,2	104,8
Boysun	217,9	3,1	106,0
Bandixon	155,1	2,2	105,5
Muzrabot	308,2	4,3	105,2
Denov	902,8	12,6	108,9
Jarqo'rg'on	404,1	5,7	105,3
Qumqo'rg'on	429,7	6,0	106,2
Qiziriq	269,2	3,8	104,7
Sariosiyo	416,9	5,8	106,9
Termiz	327,2	4,6	107,5
Uzun	293,1	4,1	106,8
Sherobod	378,5	5,3	106,2
Sho'rchi	382,9	5,4	111,5

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2019-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 529,9 ming so'mga yetdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,9 % ni tashkil etdi.



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.
 ▶ Hajmi, ming so'mda — O'sish sur'ati, % da


Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-iyun)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	2 529,9	105,9
Termiz sh.	10 521,6	108,8
Oltinsoy		
Angor	1 473,0	103,5
Boysun	2 121,5	102,6
Bandixon	1 778,4	103,9
Muzrabot	1 910,5	102,9
Denov	2 041,1	103,0
Jarqo'rg'on	2 191,2	106,2
Qumqo'rg'on	1 730,5	102,8
Qiziriq	1 715,9	103,9
Sariosiyo	2 208,6	102,5
Termiz	1 864,6	104,6
Uzun	3 947,2	104,8
Sherobod	1 592,2	104,6
Sho'rchi	1 827,5	104,0

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2019-2023- yillar yanvar-iyun)



2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **2023- yil yanvar-iyun** oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **656,0** mlrd. so'mga oshib, **4 501,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi **63,1 %** ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **15,9 %** ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, aholi daromadlarini oshishi va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati – 4501,5

Termiz sh – 896,1	Angor – 228,8
Denov – 554,5	Oltinsoy – 222,4
Sariosiyo – 284,4	Uzun – 219,8
Jarqo'rg'on – 284,4	Termiz – 218,1
Sherobod – 280,9	Qiziriq. – 214,1
Sho'rchi – 272,9	Boysun – 176,5
Qumqo'rg'on – 269,3	Bandixon – 131,9
Muzrabot – 248,3	

Xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlikning umumiy hajmida **43,2** foiz yoki **896,1** mlrd. so'm Termiz shahriga to'g'ri keldi.




Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	7 137,9	100,0	108,4
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	366,9	5,1	128,6
Moliyaviy xizmatlar	1 628,9	22,8	121,5
Transport xizmatlari	1 024,3	14,4	101,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	931,4	13,0	100,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	228,6	3,2	105,8
Savdo xizmatlari	2 464,7	34,5	102,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	169,8	2,4	103,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	386,9	5,4	120,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	95,0	1,3	103,0
Ijara xizmatlari	128,8	1,8	94,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	176,1	2,5	98,8
Shaxsiy xizmatlar	207,5	2,9	105,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	106,0	1,5	101,3
Boshqa xizmatlar	154,4	2,2	99,9

Moliyaviy xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)




2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **412,7** mlrd. so'mga oshib, **1 628,9** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **22,8** % ni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **121,5** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **93,6** % ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **46,0** foizni yoki **749,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan Termiz shahrida yuqori o'sish sur'ati **125,6** % ni tashkil etdi.



Moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (% da)	Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	Sug'urta bo'yicha xizmatlar	Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar
Surxondaryo viloyati	93,6	4,6	1,9
Termiz sh	86,6	9,9	3,5
Oltinsoy	100,0		
Angor	99,8		0,2
Boysun	100,0		
Bandixon	100,0		
Muzrabot	100,0		
Denov	99,2		0,8
Jarqo'rg'on	99,9		0,1
Qumqo'rg'on	100,0		
Qiziriq	99,8		0,2
Sariosiyo	97,0		3,0
Termiz	99,9		0,1
Uzun	100,0		
Sherobod	100,0		
Sho'rchi	100,0		

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi


(mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati.	1 628,9	Uzun	43,6
Termiz sh.	749,9	Termiz	38,6
Denov	218,7	Angor	37,6
Qumqo'rg'on	125,4	Muzrabot	36,3
Sariosiyo	90,0	Qiziriq	34,0
Jarqo'rg'on	79,9	Oltinsoy	25,5
Sho'rchi	58,6	Boysun	24,3
Sherobod	52,9	Bandixon	14,1

Transport xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi **1024,3** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022- yilning mos davriga** nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **101,1 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **14,4 %** ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **731** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **4,3 %** ini tashkil etdi. Ulardan **721** birlik (**86,6 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi
(2023- yil yanvar-iyun)

90,9 %

Quruqlikdagi transport

7,2 %

Omborlarga joylashtirish


1,9 %

Pochta va kurerlik



Avtomobil transporti xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning oʻsish surʻati **100,5 %** ni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,0 %** ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlar kiradi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **931,4** mlrd. soʻmga yetdi.



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **66,0 %**.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ushbu koʻrsatkich **67,6 %** ni tashkil etgan.




Savdo xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-iyun** oylarida savdo xizmatlari hajmi **326,7** mlrd. so'mga oshib, **2 464,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ushbu xizmat turi bo'yicha o'sish sur'ati **102,9 %** ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlar uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band bo'lganlarning ulushi **47,8 %** yoki **8,1** ming birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **90,7 %** (**8,1** ming birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)

Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar


2023- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlarining umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **83,0 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida	Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar	Ulgurji savdo xizmatlari	Chakana savdo xizmatlari
Surxondaryo viloyati	4,4	12,6	83,0
Termiz sh	5,8	17,3	76,9
Oltinsoy	3,8	6,4	89,8
Angor	3,7	3,5	92,8
Boysun	4,0	1,9	94,1
Bandixon	4,1	0,4	95,5
Muzrabot	2,9	34,3	62,8
Denov	5,9	18,0	76,0
Jarqo'rg'on	4,3	4,3	91,4
Qumqo'rg'on	4,4	3,1	92,6
Qiziriq	3,3	21,8	74,8
Sariosiyo	4,0	13,1	82,9
Termiz	4,2	7,3	88,5
Uzun	4,0	2,7	93,3
Sherobod	3,7	17,0	79,3
Sho'rchi	3,3	5,1	91,6

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **366,9** mlrd. soʻmdan iborat boʻlib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati **128,6** % ni tashkil etdi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat koʻrsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yigʻindisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- iyul holatiga koʻra, «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **0,3** ming birlikka yetdi, shundan **0,3** ming birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-iyun)

	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Surxondaryo viloyati	366,9	100	128,6
Termiz sh	77,0	21,0	147,2
Oltinsoy	21,0	5,7	129,5
Angor	13,6	3,7	124,5
Boysun	12,6	3,4	129,6
Bandixon	8,6	2,3	120,1
Muzrabot	14,9	4,1	130,8
Denov	41,8	11,4	121,3
Jarqoʻrgʻon	24,7	6,7	121,3
Qumqoʻrgʻon	24,4	6,7	120,5
Qiziriq	14,8	4,0	121,6
Sariosiyo	26,6	7,3	123,1
Termiz	12,9	3,5	119,7
Uzun	22,1	6,0	126,3
Sherobod	24,8	6,8	129,5
Shoʻrchi	27,1	7,4	127,0

¹ hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan Termiz shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **25,6** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **77,0** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **147,2 %** ni tashkil etdi.


Bandixon tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **8,6** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Telekommunikatsiya xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yiling yanvar-iyun oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **344,7** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **127,6 %** ni tashkil etgan.



bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video maʼlumotlarni uzatish **Telekommunikatsiya xizmatlari** kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi

Surxondaryo viloyati. – 344,7
1)

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. soʻmda)


Termiz sh. – 60,6	Uzun – 21,8
Denov – 40,4	Oltinsoy – 20,7
Shoʻrchi – 26,7	Muzrabot – 14,7
Sariosiyo – 25,9	Qiziriq– 14,6
Sherobod – 24,6	Angor – 12,8
Jarqoʻrgʻon – 24,5	Termiz – 12,6
Qumqoʻrgʻon – 24,1	Boysun – 12,0
	Bandixon – 8.6

1) hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2023- yil yanvar-iyun)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	366,9	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	358,5	97,7
shu jumladan:		
Telekommunikatsiya xizmatlari	344,7	96,2
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	13,8	3,8
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	8,4	2,3
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa nashirlik xizmatlari	5,4	64,3
Kino - videofilmlar va televideniye dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	0,6	7,2
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	0,6	7,2
Boshqa axborot xizmatlari	1,8	21,3

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **386,9** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,8** % ni tashkil etdi.



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-iyun** oylarida ularning ulushi **5,4** % ni tashkil etdi.

“Ta'lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **95,0** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,3 %** ini tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **437** birlikni tashkil etdi, shundan **361** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati	95,0	Sho'rchi	2,7
Termiz sh	54,1	Sariosiyo	1,6
Denov	7,8	Uzun	1,5
Boysun	5,6	Angor	1,5
Sherobod	5,5	Qiziriq	1,2
Termiz	4,2	Oltinsoy	1,2
Jarqo'rg'on	3,7	Muzrabot	1,0
Qumqo'rg'on	2,9	Bandixon	0,5

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-iyun)

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **45,2** mlrd. so'mga oshib, **228,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.
■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 470** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 463** birlik kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-iyun)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **169,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **103,0 %** ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi


Surxondaryo viloyati.		(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)	
Termiz sh.	169,8	Qumqo'rg'on	8,7
Denov	33,4	Qiziriq	8,6
Jarqo'rg'on	18,3	Uzun	8,4
Angor	14,9	Boysun	7,5
Sho'rchi	13,7	Oltinsoy	7,3
Sariosiyo	11,5	Muzrabot	6,8
Sherobod	10,6	Termiz	6,8
	9,2	Bandixon	4,2

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **106,0** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,5 %** ni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,3 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

Surxondaryo viloyati – 106,0

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)

Termiz sh. – 84,7

Jarqo'rg'on – 1,0

Denov – 5,5

Muzrabot – 1,0

Termiz – 4,1

Boysun – 0,9

Sherobod – 1,6

Sho'rchi – 0,9

Angor – 1,2

Uzun – 0,8

Qumqo'rg'on – 1,2

Qiziriq – 0,8

Sariosiyo – 1,1


Oltinsoy – 0,7

Bandixon – 0,4

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar

(2019-2023-yillar yanvar-iyun)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 176,1 mlrd. so'm miqdorda qayd etilib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati 98,8 % ni tashkil etdi.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-iyun)




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyemniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalari (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.



Ijara xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyunga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **1,9** mlrd. so'mga kopaydi, **128,8** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,8** % ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-iyun** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **73,0** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va turlarini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko'rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar, tashkilot va xo'jaliklarning samaradorligi va ularning raqobatbardoshligini hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi



Tel.: 76 225-65-91